

## JANUBIY FARG'ONA XUDUDIDA YETISHTIRILADIGAN QULUPNAY O'SIMLIGINING ZARARKURANDALARI

*Qayumova Oygu Ismoiljonovna*  
*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Farg'ona hududidagi Qulupnay o'simligining zararkurandalari haqida ma'lumot keltirilgan.

Ushbu zarakuradalarning miqdoriy ko'rsatkichlari, zarakurandalik xususiyatlar haqiqda qisqacha bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Coccinela, Adonia vipunetata L, Chrysopa Carnea Stepn, Chrysopidae

### **Qulupnay o'simligi zararkunandalarining muhim tabiiy kushandalari.**

Qulupnay shiralari so'rvuchi fitofag organizmlar bolib, hosildorlikni kamayishiga olib keladi, chunki ular asosan yosh hujayralar suyuqligi bilan oziqlanishi tufayli, o'simlikning o'suv nuqtalarini bujmaloqlashib qolishiga, mevani qing'ir qiyshiq, suvsiz bemaza bo'lishiga olib keladi. Yillik hosil kamayadi. Madaniy senozlarda mavjud so'rvuchi zarrkunandalar va boshqa turlar orasida bir qancha biotik munosabatlar mavjud:

1. Iste'molchi va oziqa manbai o'rtasidagi.
2. Tabiiy muhitning noqulay sharoitlari.
3. Yirtqichlik munosabati.
4. Tekinxor-ho'jayin munosabati.
5. Shira turlari ortasidagi munosabat.
6. Shira va chumolilar o'rtasidagi simbioz munosabat.

### **Qulupnay zararkunandalarinin tabiiy kushandalari.**

No	Zararkunanda nomi	Tabiiy kushandasi	Oziqlanish usuli
1	Bargxo'r qurtlar	Taxin pashshalari	Parazitlik
2	Qulupnay shirasi	Yeti va ikki nuqtali tugmacha qo'ngiz	Yirtqich
3	Tunlam qurtlari	Gulbadan qongiz	Yirtqich
4	Shiralar	Oltinko'z	Yirtqich

Iste'molchi va oziqa manbai, ya'ni shira bilan o'simlik o'rtasidagi munosabatlarni rivojlanishi qulupnay o'simligining vegetatsiyasi, uning fiziologik holati, o'simlik taraqqiyoti va shiralar taraqqiyoti bilan o'zaro bog'liq holda rvojlanadi. Ekologik muhitning abiotik omillarga yorug'lik, issiqlik, nisbiy namlik, tuproq tarkibi, shamol tezligi, yog'in miqdori kabilar kiradi. O'rganilayotgan hudud mintaqasi mo'tadil

qurg‘oqchil mi bo‘lib, bu yerda qulupnay o‘sishi uchun o‘z vatani singari iqlim mavjud emas, lekin tog‘oldi hududlari Vodil, Quva, Quvasoy qishloqlarida yaxshi hosil beradi. Namchil muhitning yaratilishi zararkunandalar uchun qulay sharoit hisoblanadi, havo haroratining ortiqcha ko‘tarilmasligi zararlilik darajasini kamayishiga, jumladan, Qo‘qon, Uchko‘prik, Yozyovon hududlarida quyosh nuri kuchli bo‘lib, nisbiy namlik past bo‘lishi, meva hujayralarda suv miqdorini kam bo‘lib, epidermik qatlamni dag‘al bo‘lib qolishiga olib keladi.

**Skosar turlari**, taroqsimon mo‘ylovli qulupnay changlatuvchisi, qulupnay kanasi namlik yuqori bo‘lgan joylarda yaxshi rivojlangan. Ekotizmdagi biotik omillar ichida yirtqich o‘lja munosabati keskin turlararo munosabatlarga kiradi. Bu munosabat rezavor mevalar o‘rtasida, ra’nodoshlar oilasi vakillarida shiralar va yarim qattiqqanoltililar o‘rtasidagi munosabatlarda yaqqol ko‘rish mumkin. Oddiy oltinko‘zning yetuk urg‘ochi formasi o‘zining maxsus ipchaga o‘rnashgan ovalsimon tuxumlarini qulupnay shiralari ko‘p bo‘lgan o‘simlik barglariga qo‘yadi. Ular urchuqsimon aktiv harakatlanuvchi so‘ruvchi og‘iz tipdagi lichinka bo‘lib, o‘simlik shiralarining yetuk formasi bilan oziqlanadi. Qulupnay o‘simligida yirtqichlik va parazitlik qiladigan tabiiy kushandalarni aniqlash mumkin. Yirtqich turlarga qandalalar, vizildoq, oltinko‘zlarni keltirish mumkin.

Asosiy tabiiy kushandalardan sharoitimizda ko‘p uchraydigan xonqizi qo‘ng‘izining turlarini ta’kidlash mumkin. Kuzatilgan ekin dalalarning deyarli hammasida xonqizi qo‘ng‘izining turlari uchraydi. Miqdoriy jihatdan ko‘p, tez ko‘zga tashlanadigan yetti nuqtali xonqizi qo‘ng‘izi Coccinela 7-punktata L hisoblanadi. Bundan tashqari, ikki nuqtali xonqizi qo‘ng‘izi-Adonia vipunetata L uchraydi. Xonqizi qo‘ng‘izlari voyaga yetgan va lichinkalik fazalarida nihoyatda ko‘p sondagi shiralar bilan oziqlanadi. Etti nuqtali xonqizi qo‘ng‘izini qishlab chiqqan joylardan, daraxtlar orasidan, begona o‘tlar uyumi ostidan yakka yoki to‘da holatida uchratish mumkin. Ular yirtqich bo‘lganligi sababli qishlovdan chiqqach, mevali bog‘lar, doimiy yashil o‘simlik shiralar bilan oziqlanib, keyin qulupnayga o‘tadi. Ular o‘z tuxumlarini to‘da hamda g‘uch qilib shiralar orasiga qo‘yadi. 1 tup qulupnay o‘simligida 4-6 tagacha tuxum bo‘lishi mumkin. Tuxumdan chiqqan lichinkalar shiralar lichinkalari bilan oziqlanadi. Lichinkalar g‘umbakka aylanguncha, 100-150 taga shiralarini yeb, yo‘qotishi mumkin. Ularni g‘umbakklari barglarda boshi pastga osilgan holatda birikib oladi. Yetuk formalari ham ko‘plab shiralarini qiradi. Shiralar qay darajada ko‘p bo‘lsa, qo‘ng‘izlar ham ko‘p kuzatiladi. Ikki nuqtali xonqizi ko‘ng‘izi-Adonia bipunebabo L. Rangi ochroq qizil, hajmi kichikroq tur bo‘lib, ochko‘zligi, tuxum qo‘yishi, oziqlanishi bilan yetti nuqtali xonqiziga nisbatan kam ko‘zga tashlanadi, xavf sezilsa turli panaliklarda yashirinishiga harakat qiladi. Qo‘ng‘izlar kattaligi 5-7 mm tanasida qora nuqtalari bor. Xonqizi qo‘ng‘izining boshqa turlari son jihatdan kam uchraydi. Bitta xonqizi qo‘ng‘izi bir kunda 5-27, hayoti davomida 400-500tagacha shirani yeb foyda

keltirishi mumkin.Keyingi foydali tur To‘r qanotlilar- Neuropteratur tarkumiga mansub oltinko‘zchalar oilasi-Chrysopidae hisoblanadi. Qulupnay maydonlarida oddiy oltinko‘zcha-Chrysopa Carnea Stepn uchraydi. O‘zbekiston hududida oddiy oltinko‘zcha va go‘zal oltin ko‘zcha-Chrysroysapa Dubitansles Lachlarning fitofaglar bilan kurashda samaradorligini kuzatish mumkin.

### ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Арнолди К.В. Арнолди А.В Определител насекомых поврежденных дереве.1960г.
2. Алимджанов Р.А. Полезные и вредные “без позвоночные животные Узбекистана” Т.Фан. 1967 й.
3. Абашкевич Б.П. Рол многоядных ентомофагов ва агроценозе овощного поле- Сб. Кишенев 1974г.
6. Бей-бийенко. Г.Я.идр. Сельскохозяйственная ентомология. Сельхозгиз,М.-Л.,1963г.
7. Ботирова. Д., Каххарова Г, Акбаров Д.. - Европа иттифоки мамлакатлари бозорларига қандай қилиб экспорт қилиш керак Тошкент, 2015. - 66 б.
8. Болайев Е.Б, Филатов В.П, Москарова И.С. Естествение регулятори численности вредителей растений-защита растений, Н5.1977г.
9. Богомбова А.С. Азилов Б. материалы по изучению ентомофагов хлопковой совки. Вредители сельскохозяйственных культур Узбекистана и их ентомологии Т.Фан. 1970г.
10. Бондаренко Н.В. Биологическая защита растений. Л.Колос 1978г.
11. Боголюбова А.С. Адилов Б. Вредители сельскохозяйственных культур Узбекистана и их ентомология. Т.Фан.1960г.
12. Давлетнина А.Г. Тли род Апхис. Л. Узбекистана. Ташкент. Фан, 1964й.
13. Мустафаев С. М. Ботаника Тошкент «Ўзбекистон» 2002
14. Нарзикулов М.Н, Жуманов Б.Ж. Особенности интегрированой борьбы с озимой совково-хлопковостью Н12. 1979г.
- 15.Хужаев Ш.Т.Ўсимликларни зааркунандалардан уйгунлашган химоя килишининг замонавий усул ва воситалари. Тошкент-2015й.
16. Яхонтов В.В. Екология насекомых. М.Высшая школа 1969г.

### Foydalilanilgan internet saytlari:

1. <http://www.zoodrug.ru>.
2. <http://www.floralworld.ru>
3. <http://www.about-plants.ru>